



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 5 (7)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 5-son 2026 yil

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

5

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Minojiddinov A.A. Meva-sabzavot tarmog‘i korxonalarini boshqarishda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish yo‘llari	8
Mirzayev A.T., Dilnozaxon M. O‘zbekistonda turizm marketingi samaradorligini baholash va uni takomillashtirishning integratsiyalashgan mexanizmi.....	12
Shavkatov A.Sh. O‘zbekistonda kichik biznes rivojlanishining institutsional va makroiqtisodiy asoslari.....	16
Махаммаджанов М.М. Инновационная трансформация банковского сектора Узбекистана: общесистемные тенденции и финансовые результаты.....	20
Sativaldiyeva G.X. IFRS 16 “Ijara” xalqaro standartiga muvofiq ijara hisobidagi o‘zgarishlar.....	24
Ismailov X.M. Aloqa korxonalari moliyaviy barqarorligini ta‘minlash metodologiyasini takomillashtirish masalalari.....	28
Yusubov I.I. Mintaqada iqtisodiyotni barqarorlashtirishda raqamli xizmatlarning rivojlanishi.....	32
Saidaxmedov N.X. Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoiyatini shakllanishi va rivojlanishining zamonaviy nazariyalari.....	35
Istamqulov D.Q., Danyarova F.B. Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni takomillashtirish yo‘llari.....	40
Aipova I.I. Resurs samaradorligini baholashning nazariy usullari va ko‘rsatkichlari.....	43
Mirzaraximova A.A. Tijorat banklari tomonidan aloqa sohasini moliyalashtirish samaradorligini oshirish yo‘llari.....	49
Xalmirzaev A.A. Yer va suv resurslaridan samarali foydalanishda hududiy ixtisoslashuvning ahamiyati va iqtisodiy samaradorligi.....	53
Sidikov Z.A. Sirdaryo viloyatida sanoatlashtirish jarayonining hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta‘siri.....	59
Usmanova N.Y. Raqamli iqtisodiyotda menejment qarorlarini qabul qilishda innovatsion texnologiyalarning roli.....	63
Ergashev R.X., Rajabaliyeva I.A. Transport-logistika infratuzilmasini raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirish va uning samaradorligini oshirish.....	67
Raximova D.S. Barqaror restoran amaliyotlari: oziq-ovqat chiqindilarini kamaytirish va qayta ishlashning innovatsion yondashuvlari.....	70
Narzullayeva X.A. Investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishning xalqaro tajribalari.....	76
Muxitdinov Sh.Z. Kichik agrobiznes subyektlarida mahsulotlar eksportini rivojlantirishga ta‘sir etuvchi omillar.....	84
No‘monov O.O‘. Agrotadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatiga ta‘sir etuvchi makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy omillarni kompleks baholash.....	88
Yeshimbetov U.X. O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirishda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish.....	92
Raximova K.N. Tadbirkorlik sharoitida yashil biznesni tashkil etish va rivojlantirishining o‘ziga xos xususiyatlari	97
Хошимов П.З., Тўрахожайев Х.Х. Ислоний банкларнинг ишлаш таомойллари ва ислон молия тизимининг Ўзбекистон иқтисодиётига таатбири.....	100
Sattarov R.A. An integrated methodological framework for evaluating and forecasting interregional economic cooperation: an input-output approach (evidence from Uzbekistan).....	107
Farmanov J.Z. Mintaqada asalarichilik ekotizimining tamoyillari va ekologik-geografik xususiyatlarini takomillashtirish	111
Qurbonov A.B. Janubiy iqtisodiy rayonda qishloq xo‘jaligi orxonlarining tarkibiy o‘zgarishi va agrar kooperatsiyani rivojlantirish yo‘nalishlari.....	114
Тоштемиров Т.Т. Ўзбекистонда кичик тадбиркорлик субъектлари фаолиятини кенгайтиришда солик механизмларида фойдаланиш масалалари.....	119
Arziyev M.A. O‘zbekiston iqtisodiyotini transformatsiyalash sharoitida oilaviy tadbirkorlikni rivjlantirishning ustuvor yo‘nalishlari.....	122
Maxkamova S.Sh. Ekologik innovatsiyalar orqali yerni oqilona boshqarishning tashkiliy va iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....	127
Olimova N.X. Yashil moliyalashtirishning rivojlanish tendensiyalari hamda hozirgi amaliyoti: milliy kontekst	137
Zaylobitdinova H.X. Davlat oliy ta‘lim muassasalarining tijorat faoliyatini samarali boshqarish strategiyalari.....	141
Komilov A.I. Evolution of the catering industry in the context of digital technologies.....	145

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 5-son 2026 yil

Sotvoldiyev N.N. Mamlakatimizda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda mehnat bozoriga ta'sir etuvchi omillar.....	149
O'rinov A.A. Sanoat tarmoqlarining investitsion imkoniyatlarini barqarorlik indikatorlari asosida boshqarish mexanizmlari.....	154
Ahmadaliyeva R.A. O'zbekistonda xufyona iqtisodiyotga qarshi kurashish samaradorligi.....	158
Uzganbayeva D.T., Alimova Sh.F. The role of investment strategies in transforming small business entities into large corporate structures.....	162
Goziyev M.Sh., Abdufattoyeva M. Sun'iy intellekt asosida iqtisodiy qarorlar qabul qilish samaradorligini oshirish.....	167
Qobilov H., Uzganbayeva D.T. O'zbekiston iqtisodiyotida xususiy tadbirkorlikning ro'li: so'nggi yillardagi islohotlar sharoitida iqtisodiy o'sish va bandlikka qo'shayotgan hissi.....	170
Sotiboldiyeva R., Uzganbayeva D.T. O'zbekistonda xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishda moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining ahamiyati.....	174
Маматкулов З.Ш. Хизмат кўрсатиш фаолиятининг шакллантириш ва бошқаришда хориж тажрибаларидан самарали фойдаланишнинг инновацион йўналишлари.....	179
Shamsiddinov P., Uzganbayeva D.T. Iqtisodiyotning raqamlashtirishning afzaliklari va uning oqibatlari.....	185
Qosimov A.S. Jizzax viloyati mahallalarining qayta nomlanishi va demografik jarayonlar va iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari.....	189
Qodirov A., Tulaganov E.J., Berdimurodov U.S. Inson kapitalini kapitalizatsiya qilish va samaradorligini oshirish.....	192
Saidkarimova M.I., Sobirov O.A. Sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish yo'llari.....	199
Saidova M.J. Sanoat transformatsiyasi sharoitida kichik biznes va tadbirkorlikning o'rni (Andijon viloyati misolida)	203
Юсупов А.С., Пардаев Х.Ф. Динамическое управление международным портфелем акций: механизмы ребалансировки и преимущества глобальной диверсификации в условиях волатильности валютных рынков.....	206
Burxonov J.X., Soliyev I.I. Mehnat bozorini tartibga solishda innovatsion yondashuvlarning xorij tajribasi tahlili.....	213
Xaitbaev J.O. Mintaqa iqtisodiyotini barqarorligini ta'minlashda suv resurslaridan foydalanishning ko'p omilli ekonometrik modellari.....	217
Saidov U.S. Kichik tadbirkorlik subyektlarida ekologik innovatsiyalarni rag'batlantirishning moliyaviy yo'nalishlari.....	221
Nurmaxanmadov N.B. Iqtisodiyotning ekologiyaga ta'sir moyilligining oshib borishi muammosi.....	224
Xudayberdiyev K. Davlat xaridlarida elektron platformalar faoliyatini optimallashtirishda sun'iy intellektga asoslangan moderatsiya mexanizmlarining roli.....	230
Xolxo'jayev E.G'. Davlat xaridini tashkil etishda elektron savdolardan foydalanish samaradorligi hamda imkoniyatlari tahlili.	234
Rustamova F.A. Qishloq joylarda tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy samaradorligini baholash va uni oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....	238
Ikromov A. Iqtisodiy jarayonlarni ekonometrik modellashtirishda integro-differensial tenglamalarning o'rni va ularni tadqiq etish.....	241
Sarimsakov B.R., Usmonov J.Q. Xorijiy mamlakatlarda inson kapitalidan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida samarali foydalanish tajribalari.....	245
Maraimov I.R. O'zbekistonda kambag'allikni kamaytirish va aholi turmush farovonligini oshirish.....	251
Yusupov Sh.B. Xorazm viloyatida sanoat korxonalarining iqtisodiy samaradorligini baholash va oshirish yo'llari: 2020–2025 yillar tahlili va 2030 yilga prognoz.....	256
Chintemirova D.Sh. Hududlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish tendensiyalari.....	260
Xusanova Z.R. Ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning samaradorlik ko'rsatkichlari va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar.....	265
Tajiboyev S.O., Gulimboyev S.I. Moliyaviy siyosatning investitsiya muhitiga ta'siri.....	270
Tajiboyev S.O. G'aznachilikda to'lovlarni amalga oshirish.....	275
Xaydarov M., Baxtiyorov I. Innovatsion iqtisodiyot g'oyalari va ularni oliy ta'lim tizimi orqali qo'llashning nazariy asoslari.....	279
Ким Т.В., «Зарубежный опыт развития циркулярной экономики и её роль в формировании ресурсосберегающей модели экономического развития».....	286

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 5-son 2026 yil

Saydullayeva R.U. Analysis of financial efficiency and profitability in the green economy: the role of IAS and IFRS standards.....	292
Galatov A.A., Karimova G.A. O‘zbekistonda Islomiy moliyaviy xizmatlar ko‘rsatuvchi nobank tashkilotlar faoliyati va strategik boshqaruv tizimining tahlili.....	296
Tursunov F.U. Oliy ta‘lim sifati monitoringini takomillashtirish mexanizmlarini rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari... ..	300
Yakhshiboev R.E. Retrieval-augmented generative AI for smart learning content.....	303
Ergashev S.A. Sanoat korxonalarini barqaror rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish: ilmiy-nazariy va amaliy asoslar.....	307
Абдуллаева Р.Ғ., Тажибаева Н.Ф. Ўзбекистон иқтисодиётида инвестицияларнинг устувор йўналишлари ва ривожланиш истиқболлари.....	311
Sayfullayev J. Why organizations struggle to implement green management practices: key barriers and practical solutions.....	316
Sirojiddinov K.I. Korxonaning raqobatbardoshligini baholash usullari.....	319
Ibraximov X.S. Mintaqalarda tadbirkorlik muhitini shakllantirishda kichik biznesni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning o‘rni va mexanizmlari.....	324
Tajibayev K.Q. Farg‘ona vodiysida kichik biznes sub‘ektlari raqobatbardoshligini oshirishning metodologik asoslari.....	328
Abdulxakimov Z.T. Barqaror rivojlanish evolyusiyasi va tarkibiy qismlari masalalari.....	332
Pazilidinov M.M. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda xorijiy mamlakatlarning raqamlashtirish tajribasi.....	337
Жураева М.З., Ахмедов Р.М. Экосистема применения системного подхода в менеджменте транспортной инфраструктуры.....	341
Ахмедов Р.М. Основные требования к разработке системного подхода в менеджменте дорожного хозяйства Республики Узбекистан.....	348
Mamasiddiqova F.X. Qishloq xo‘jaligida mahallalar ixtisosligi: nazariy asoslar, regional tahlil va rivojlantirish istiqbollari.....	353
To‘rayev A.A. Mehnat bozorini texnologik transformatsiyalash sharoitida ishchi kuchi raqobatbardoshligini oshirish mexanizmlari.	358
Солиев И.И. Концептуальные основы институциональной автономии вузов в условиях модернизации системы образования Узбекистана.....	362
Xasanov S.Q. Sanoat korxonalarini rivojlantirishda modernizatsiya va klaster yondashuvining o‘rni.....	365
Murodov A. Aholining real pul daromadlarini va xarid qobiliyatini oshirishning nazariy asoslari.....	369
Карабаев Р.З. Искусственный интеллект в цифровой экономике Узбекистана.....	374
Rasulova Sh.A. Bozor iqtisodiyotida monopoliyaning mohiyati, shakllari va uning O‘zbekiston iqtisodiyotiga ta‘siri.....	378
Salimov A.F., Rasulova Sh.A. Bozor muvozanati va unga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillar.....	381
Sattarova G.X. O‘zbekiston logistika bozorida yuk tashish xavflarini sug‘urta orqali kamaytirishning iqtisodiy samaradorligi.....	385
Муродхўжаева Ф.М. Маҳаллий саноатни шакллантиришда кластер ёндашуви ва 2030 йилгача трансформациянинг прогноз параметрлари (Наманган вилояти мисолида).....	389
Yoqubjonov R.R. Kichik biznes mahsulotlari raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion yondashuvlar.....	396
Nasritdinov B.X. Risklarni integral baholash kichik biznesda moslashuvchan boshqaruv tizimi asbobi sifatida	400
Abdurazzoqov H.A. O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonining hozirgi holati va tendentsiyalari.....	406
Turgunov M.M., Soliyev I.I. Milliy innovatsion tizim samaradorligini oshirishning strategik yo‘nalishlari.....	411
Kuzimuratova D.M. O‘zbekiston Respublikasida tijorat banklarining investitsiya faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirish.....	414
Soyibjonov I.S. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarini yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida rivojlantirish.....	419
Axmadjanov I.I. Shaharlar va shahar aglomeratsiyalari mintaqalar va mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining drayveri.....	423
Odinayev G‘.J. Nogironligi bo‘lgan aholi qatlamini strategik sohalarda band qilish loyihalari.....	427
Abduvahobov V.B. Jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashishning global standartlari va O‘zbekiston tajribasi: kompleks tahlil.....	430
Қўзиева Н.Н. Билвосита солиқларнинг шаклланиши ва ривожланиб бориши.....	435

5. Wolt.lv. (2022, march 15). wolt.lv delivery. Retrieved from Sushi Club.lv: <http://www.wolt.lv/riga/restaurant/sushi-club-riga>
6. Porter M. E. (1980). Competitive Strategy: Techniques for Analyzing Industries and Competitors. Free Press.
7. Reichheld F. F. (2003). The One Number You Need to Grow. Harvard Business Review, 81(12), 46-54.
8. Vargo S.L., & Lusch R.F. (2004). Evolving to a New Dominant Logic for Marketing. Journal of Marketing, 68(1), 1-17.

UDK: 330.3:331.5:502.131.1 (575.1)

**MAMLAKATIMIZDA YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA MEHNAT
BOZORIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR**

**ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА РЫНОК ТРУДА В ПРОЦЕССЕ РАЗВИТИЯ ЗЕЛЁНОЙ
ЭКОНОМИКИ В СТРАНЕ**

**FACTORS INFLUENCING THE LABOR MARKET IN THE DEVELOPMENT OF THE
GREEN ECONOMY IN OUR COUNTRY**

Sotvoldiyev Nurnuxammad Nematjonovich
Farg‘ona davlat texnika universiteti, mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya

Ushbu ishda O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning mehnat bozoriga ta’sir etuvchi asosiy omillari tahlil qilingan. Tadqiqotda qayta tiklanuvchi energiya, ekologik texnologiyalar, energiya samaradorligi va resurs tejankor sohalarning ish o‘rinlari yaratish hamda mehnatga bo‘lgan talabni o‘zgartirishdagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonida yangi bandlik imkoniyatlari, raqamli transformatsiya va innovatsion yondashuvlarning ahamiyati ko‘rib chiqilib, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: yashil iqtisodiyot, mehnat bozoriga ta’sir, yangi ish o‘rinlari, ekologik texnologiyalar, qayta tiklanuvchi energiya, energiyani tejash, raqamli transformatsiya, innovatsion yondashuv, bandlik, barqaror rivojlanish

В работе проанализированы ключевые факторы, влияющие на рынок труда в процессе развития зелёной экономики в Узбекистане. Рассматривается влияние возобновляемой энергетики, экологических технологий, энергоэффективности и ресурсосбережения на создание рабочих мест, изменение требований к труду и необходимость обновления навыков. Также исследуются новые возможности занятости, цифровая трансформация и инновации, и предлагаются рекомендации по обеспечению экономической и социальной устойчивости.

Ключевые слова: зеленая экономика, влияние на рынок труда, новые рабочие места, экологические технологии, возобновляемые источники энергии, энергосбережение, цифровая трансформация, инновационный подход, занятость, устойчивое развитие

This study analyzes the key factors influencing the labor market in the development of the green economy in Uzbekistan. It highlights the impact of renewable energy, eco-technologies, energy efficiency, and resource-saving sectors on job creation, changing labor demands, and the need for new skills. The research also examines emerging employment opportunities, digital transformation, and innovation, and provides recommendations to ensure economic and social sustainability.

Keywords: green economy, impact on the labor market, new jobs, environmental technologies, renewable energy sources, energy conservation, digital transformation, innovative approach, employment, sustainable development

So‘nggi yillarda global iqtisodiy barqarorlik va ekologik xavfsizlik masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Yashil iqtisodiyot konsepsiyasi resurslardan samarali foydalanish, atrof-muhitni muhofaza qilish va past uglerodli texnologiyalarni joriy etishni nazarda tutadi. Uning rivojlanishi esa mehnat bozorida sezilarli o‘zgarishlarni keltirib chiqarib, yangi ish o‘rinlarini yaratish, malakalarni yangilash va ishchi kuchiga bo‘lgan talabni qayta shakllantirishni taqozo etadi.

O‘zbekiston sharoitida yashil iqtisodiyotning jadal rivojlanishi energetika, sanoat, qishloq xo‘jaligi va xizmat ko‘rsatish sohaslarida yangi bandlik imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Shu bilan birga, mehnat bozorida malaka va ko‘nikmalarni yashil iqtisodiyot talablari bilan uyg‘unlashtirish, innovatsion va raqamli texnologiyalarni joriy etish hamda ekologik mehnat standartlarini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekistonning yashil iqtisodiyotga o‘tishi mamlakat mehnat bozoriga sezilarli ta’sir ko‘rsatib, yangi imkoniyatlar va muammolarni yuzaga keltirmoqda. Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT) ma’lumotlariga ko‘ra, 2020-yilda iqtisodiyotda band bo‘lgan 13,23 million kishidan atigi 5,7 millioni rasmiy sektorda ishlagan, bu esa mamlakatda norasmiy bandlik darajasi yuqori ekanligini ko‘rsatadi. Ekologik barqaror texnologiyalar va amaliyotlarni joriy etish yashil iqtisodiyotga yo‘naltirilgan tarmoqlarda yangi ish o‘rinlarini yaratishga olib kelishi mumkin. Biroq bu ishchi kuchining muhim qismini qayta tayyorlashni ham talab qiladi.

Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekiston iqtisodiyoti iqlim o‘zgarishiga moslashmasa, 2050-yilga borib, 10,0 foizga qisqarishi mumkin, bu esa bandlik va uy xo‘jaliklari daromadlarining sezilarli darajada pasayishiga olib keladi. Yashil iqtisodiyotga muvaffaqiyatli o‘tish tegishli tarmoqlarga investitsiyalarni ko‘paytirishni talab qiladi. Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti (IHTT) mutaxassislari ta’kidlaganidek, O‘zbekistonning yashil o‘tish ko‘lami mavjud investitsion bo‘shliqni yopish uchun xususiy moliyani sezilarli darajada oshirishni talab qiladi.

Shu nuqtai nazardan, O‘zbekiston hukumati tomonidan xalqaro tashkilotlar ko‘magida “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish va barqaror tarmoqlarda yangi ish o‘rinlari yaratishga qaratilgan strategik hujjatlar va dasturlar ishlab chiqildi. Bu tashabbuslar energiya samaradorligini oshirish va qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirishga qaratilgan energetika sohasidagi islohotlarni o‘z ichiga oladi, bu esa o‘z navbatida, yangi ish o‘rinlarini yaratish va qazib olinadigan yoqilg‘iga qaramlikni kamaytirishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev “yashil” iqtisodiyotga o‘tish va u bilan bog‘liq bandlik sohasidagi o‘zgarishlar muhimligini bir necha bor ta’kidlagan. Xususan, 2025-yilda Abu-Dabidagi Barqaror rivojlanish haftaligi sammitida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti O‘zbekistonning strategik maqsadi resurslarni tejovchi, “yashil” rivojlanish modeliga o‘tish orqali ekologik barqarorlikni va iqtisodiy o‘sishni ta’minlash ekanini ta’kidladi. Prezident kelgusi besh yilda investitsiya loyihalarida “yashil” tarkibiy qismlar 50,0 foizga yetkazilishi, bu yangi ish o‘rinlari tashkil etilishini, iqtisodiyotning yangi tarmoqlarida ishlash uchun malakali kadrlar tayyorlashni taqozo etishini alohida ta’kidladi.

O‘zbekistonning “yashil” iqtisodiyotga o‘tishi nafaqat ekologiya va iqtisodiy sohalarda, balki mehnat bozori va kadrlar tayyorlash tizimida ham katta o‘zgarishlarni nazarda tutadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrda 436-sonli “O‘zbekiston Respublikasini 2030-yilga qadar “yashil” iqtisodiyotga o‘tkazishga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, energiya samaradorligini oshirish, resurslarni tejash va iqlim o‘zgarishiga moslashish bilan bog‘liq yangi tarmoqlar va yo‘nalishlarni rivojlantirishning fundamental asoslarini belgilab berdi. Hujjatda bandlikka bevosita yoki bilvosita ta’sir ko‘rsatadigan strategik maqsadlar aniq belgilangan.

Xorijiy tadqiqotchilar orasida keng tarqalgan ishchilarning kasbiy vazifalariga yo‘naltirilgan yondashuvga (vazifaga asoslangan yondashuv) murojaat qilish taklif etiladi. Birinchi marta konseptual darajada ishlab chiqarish jarayonining ekologik tozaligini professional vazifalar orqali

o‘lchash g‘oyasi Xalqaro Mehnat Tashkiloti tomonidan 2013-yilda taklif qilingan [2]. Asosiy chora-tadbirlardan biri yashil sertifikatlash tizimini rivojlantirish hamda issiqxona gazlari emissiyasini davlat tomonidan tartibga solish uchun infratuzilma yaratishdir. Bu, xususan, ekologik sertifikatlash, monitoring va hisobot berish sohalarida yangi kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, zarur resurslar va kadrlar tayyorlash orqali aholining yashil iqtisodiyot loyihalaridagi ishtirokini kengaytirish, yangi yashil ish o‘rinlarini yaratish, kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish hamda xotin-qizlar va yoshlarning ekologik tashabbuslardagi faolligini oshirish ko‘zda tutiladi.

O‘zbekiston ko‘plab davlatlar qatori nafaqat “yashil” texnologiyalarni joriy etish, balki ekologik barqaror bandlik tizimini shakllantirish vazifasini ham amalga oshirmoqda. Norasmiy bandlik keng tarqalgan sharoitda bu jarayon mehnat resurslarini qayta tayyorlashni talab etadi. Hukumat tomonidan qabul qilingan strategiyalar va me‘yoriy-huquqiy hujjatlar qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, energiya samaradorligini oshirish va resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etishga yo‘naltirilgan. Shu bilan birga, ushbu tashabbuslarning samarali amalga oshirilishi kadrlar salohiyatini oshirish hamda investitsiya bazasini kengaytirish zaruratini kuchaytirmoqda. 2020-yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotning global ko‘rsatkichi 4,1 foizga keskin pasayganidan so‘ng, 2021-yilda 5,2 foizga o‘tdi. Shu bilan birga, aholi jon boshiga global real YaIMning o‘sishi 2022-yilda 2,2 foizga, 2023-yilda esa 1,4 foizga sekinlashgan, shundan so‘ng u asta-sekin tiklana boshlab, 2024-yilda 1,6 foizga ko‘tarildi. Aholi jon boshiga va har bir band bo‘lganlarga nisbatan real YaIM ning o‘sish sur‘ati, mos ravishda, 2010-yildagi 4,1% va 4,3% ni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yildagi 4,1 va 3,9% ni tashkil etdi. Ko‘rinib turibdiki, har bir band aholiga nisbatan real YaIM ning o‘sish sur‘ati 3,9% ni tashkil etgan. Norasmiy bandlikning umumiy bandlikdagi ulushi 2018-yildagi 40,5% dan 2024-yildagi 39% ga qadar pasaygani holda, ayollar o‘rtasida bu ko‘rsatkich 47,5% dan 47,1% gacha, erkaklar orasida esa 37,8% dan 33,1% gacha pasaygan. Ko‘rinib turibdiki, ayollar orasida norasmiy bandlik darajasi yuqoriligicha qolmoqda. Tarmoqlar bo‘yicha qishloq xo‘jaligida 2018-yildagi 66,5% dan 2024-yildagi 60,8% ga qadar kamayib, qishloq xo‘jaligidan tashqari tarmoqlarda 30,0% dan 31,5% ga qadar oshgan.

16-30 yoshlilar orasida 2018-yilda 15,1% dan 2024-yildagi 12,1% gacha pasaydi, 30 yoshdan kattalar orasida esa 6,8% dan 3,9% gacha pasaydi. 2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekistonning iqtisodiy rivojlanishi ushbu konsepsiyaning xalqaro miqyosda qabul qilingan ta‘riflari va xususiyatlariga muvofiq, barqaror iqtisodiy o‘shishni ta‘minlaydi. 2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekistonni iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha maqsadlarida milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish asosida yalpi ichki mahsulotning 2030-yilga qadar kamida 2 baravar ko‘payishi ko‘zda tutilmoqda.

Shunday qilib, yoshlar ishsizlik darajasi (16 yoshdan 24 yoshgacha bo‘lgan ishsiz yoshlar shu yoshdagi iqtisodiy faol aholiga nisbatan ulushi) 24,1 foizni tashkil etdi. Mehnatga layoqatli yoshdagi ayollarning iqtisodiy faollik darajasi 66,6 foizni, erkaklar orasida esa 80,5 foizni tashkil qildi. 2030-yilga borib O‘zbekistonning o‘rtacha darajadan yuqori daromadli davlatlar qatoriga kirishida ishbilarmonlik muhitini yaxshilash va mehnat unumdorligini oshirish asosida yuqori qo‘shilgan qiymatli ish o‘rinlarini yaratish muhim o‘rin tutadi. Ushbu maqsadga erishish uchun hukumat ishlab chiqarishni kengaytirish, texnik modernizatsiya, infratuzilmani rivojlantirish hamda innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan faol investitsiya siyosatini amalga oshirmoqda. Shuningdek, tashqi va ichki investitsiyalar salohiyatini kengaytirish orqali tarkibiy iqtisodiy o‘zgarishlarni chuqurlashtirish ko‘zda tutilgan. Barqaror rivojlanishning 8-maqsadi doirasida esa munosib ish o‘rinlarini yaratish va iqtisodiy o‘shishni ta‘minlashga qaratilgan asosiy vazifalar belgilangan.

- 2030-yilgacha yalpi ichki mahsulot hajmining aholi jon boshiga nisbatan hisoblaganda 2,6 baravarga o‘shishini ta‘minlash;

- diversifikatsiya, texnik modernizatsiyalash va innovatsion faoliyatni rivojlantirish vositasida iqtisodiyotda samaradorlikning o‘shishiga erishish, bunda yuqori qo‘shilgan qiymat va mehnat talab sektorlarga alohida e‘tibor qaratish;

- mehnat bozorida faol chora-tadbirlarni amalga oshirish, xususiyl mulkni muhofaza qilish, kichik va yirik biznesni hamda xususiyl, oilaviyl tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va tezkor

rivojlantirishdagi to‘siqlarni bartaraf etish orqali aholini, ayniqsa, yoshlar, nogironlarni munosib ish bilan ta‘minlash va samarali bandlikni kengaytirishga yo‘naltirilgan qulay shart-sharoit yaratish;

- 2030-yilning oxirigacha bo‘lgan butun muddat davomida iste‘mol qilish va ishlab chiqarish tizimlarida resurslardan foydalanishning global samaradorligini asta-sekin oshirib borish hamda iste‘mol va ishlab chiqarishning oqilona modellardan foydalanishga o‘tish bo‘yicha o‘n yillik harakatlar strategiyasida ko‘zda tutilganidek, iqtisodiy o‘sish atrof-muhit holatining yomonlashuvi bilan birga kechmasligiga intilish;

- 2030-yilgacha barcha xotin-qizlar va erkaklarning, shu jumladan, yoshlar va nogironlarning barqaror va samarali bandligini hamda munosib ish bilan, jumladan, band aholi sonini 1,4 baravarga, mehnat unumdorligini 3,1 baravarga oshirish hisobidan, shuningdek, teng qiymatli mehnat uchun teng ish haqi to‘lanishini ta‘minlash;

- 2030-yilgacha ishlamayotgan, o‘qimayotgan va kasbiy malakalarni egallamayotgan yoshlarning ulushini ikki baravarga qisqartirish;

- bolalar mehnati hamda majburiy mehnatning eng yomon shakllariga yo‘l qo‘ymaslikni nazorat va monitoring qilishni kuchaytirish;

- xodimlarning mehnat huquqlarini himoya qilish va ular uchun xavfsiz mehnat sharoitlarini ta‘minlash;

- 2030-yilgacha yangi ish o‘rinlarini yaratish hamda mahalliy mahsulotga bo‘lgan talabni kuchaytirishga ko‘maklashuvchi turizmning barqaror rivojlanishini ta‘minlash;

- aholi va tadbirkorlik subyektlari tomonidan moliya muassasalarining bazaviy xizmatlari, xususan, bank, sug‘urta va to‘lov xizmatlaridan keng miqyosda foydalanish, shu jumladan, masofaviy foydalanishni rag‘batlantirish va kengaytirish;

- 2030-yilgacha yoshlar bandligini ta‘minlash bo‘yicha global strategiyani ishlab chiqish va amalga kiritish hamda Xalqaro Mehnat Tashkilotining ish o‘rinlari haqidagi Global paktini (2009- yil 19- iyulda Xalqaro mehnat konferensiyasida qabul qilingan) amalga oshirish.

O‘qimayotgan va ishlamayotgan yoshlar (16 yoshdan 24 yoshgacha) ulushi 2010-yildagi 19,3% dan 2024-yildagi 23,8% gacha ko‘paygan. Bu jamiyat va iqtisodiyot uchun jiddiy xavf hisoblanadi hamda kasbiy ta‘lim va qayta tayyorlash dasturlarini keng joriy etish, yoshlar uchun maxsus ish o‘rinlari yaratish, yosh tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, mehnat bozori va ta‘lim o‘rtasida uyg‘unlikni ta‘minlash, ijtimoiy xizmatlar orqali qiyin ahvoldagi yoshlarga psixologik va huquqiy ko‘mak berish, yoshlar faolligini oshirish kabi yo‘nalishlardagi tadbirlarni kuchaytirishni taqozo etadi. 2018-yilda O‘zbekistonda jami shikastlanishlar 100 ming aholiga nisbatan 42,8 kishini tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilda 9,4 kishigacha kamaygan. Shikastlanish darajasi ayollarga nisbatan erkaklarda yuqori bo‘lib, kamayish tendensiyasiga ega bo‘lgan va 51,2 kishidan 16,2 kishigacha kamaygan. Jumladan, o‘limga olib keladigan shikastlanishlar ham erkaklar orasida yuqori bo‘lib, har 100 ming aholiga nisbatan 2010-yildagi 10,1 kishidan 2024-yildagi 5,5 kishiga qadar kamaygan.

XMT konvensiyalariga muvofiq, kollektiv shartnomalar tuzilgan korxonalar ulushi 2010-yildagi 90,1% dan 2024-yilda 99,9% ga yetdi. Bu mehnat bozorida xalqaro me‘yorlarga rioya etilayotganini, xodimlarning ijtimoiy himoyasi mustahkamlanayotganini hamda ijtimoiy sheriklik munosabatlari rivojlanayotganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, global miqyosda raqamli tafovut saqlanib qolmoqda: taxminan 1-1,15 milliard kishi telefon xizmatlaridan foydalana olmaydi, 4 milliarddan ortiq aholi esa Internetga ulanmagan, ularning asosiy qismi rivojlanayotgan davlatlarda yashaydi. Ushbu tafovutni qisqartirish axborot va bilimlarga teng kirishni ta‘minlash, innovatsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishga asoslangan “yashil” iqtisodiyotga o‘tish zarurati bandlik sohasida o‘zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. “Yashil” ish o‘rinlari iqtisodiyotning ham an‘anaviy, ham yangi tarmoqlarida paydo bo‘lmoqda. Ushbu ish o‘rinlari ham atrof-muhitni muhofaza qilishga, ham munosib mehnat sharoitlarini yaratishga qaratilgan (munosib ish haqi, qulay sanitariya-gigiyenik va psixofiziologik mehnat sharoitlari, shuningdek, ishchi kuchida ijtimoiy-psixologik iqlim, xavfsiz ishlab chiqarish texnologiyalaridan foydalanish va xizmatlar ko‘rsatish, binolarning ichki qismida ekologik toza materiallardan foydalanish va boshqalar) [1]. «Yashil» o‘tish sharoitida iqtisodiy tizimni o‘zgartirish, umuman, O‘zbekistonda va iqtisodiyotning

alohida tarmoqlarida «yashil» ish o‘rinlarining soni va sifat ko‘rsatkichlarini hisobga olish, baholash zarurligini nazarda tutadi. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi hozirda “yashil” ish o‘rinlari hisobini yuritmaydi hamda ushbu tushuncha rasmiy statistika metodologiyasiga kiritilmagan. Shu bilan birga, mamlakatda ish o‘rinlari asosan iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yuqori samaradorlik mezonlari asosida baholanadi. Amaldagi metodologiyaga ko‘ra, yuqori texnologiyali ish o‘rinlarini tasniflashda ish haqi darajasi, mehnat unumdorligi va qo‘shilgan qiymat ko‘rsatkichlari asosiy mezon sifatida qo‘llaniladi. Biroq ushbu yondashuv ish o‘rinlarining ekologik ta‘siri hamda xodimlarning sog‘lig‘i va mehnat sharoitlarini hisobga olmaydi.

O‘zbekistondagi barcha ish joylari, tashkilot va korxonalar ishlab chiqarish muhiti va mehnat jarayoni turli omillarining xodimlar salomatligi va ish faoliyatiga ta‘sirini aniqlash uchun ish sharoitlari asosida ish joylarini maxsus baholashdan o‘tkazishi kerak. Statistik ma‘lumotlarning tahlili shuni ko‘rsatdiki:

— hozirgi vaqtda O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika Qo‘mitasi iqtisodiy faoliyatning iqtisodiyot va jamiyatga ta‘sirining individual jihatlarini «yashil» transformatsiya nuqtai nazaridan baholaydi (yuqori texnologiyali ish joylarini baholashning individual usullari mavjud, iqtisodiy faoliyatning ishchilar sog‘lig‘i va samaradorligiga ta‘siri, iqtisodiy faoliyatning atrof-muhitga ta‘siri);

– umuman, mamlakatdagi «yashil» ish o‘rinlari soni bo‘yicha mualliflarning hisob-kitoblari taqdim etilmagan;

- O‘zbekistonda va butun dunyoda qo‘shimcha ravishda yaratilishi mumkin bo‘lgan «yashil» ish o‘rinlari sonining prognozlarini sezilarli darajada farq qiladi. Bu «yashil» ish o‘rinlari sonini baholashning kompleks metodologiyasidan foydalanishni talab qiladi, bu esa O‘zbekistonda mehnat bozorining «yashil» tarkibiy qismining holatini tahlil qilish imkonini beradi.

«Yashil» ish o‘rinlarining soni va sifat tarkibini baholash uchun aniq tanlash mezonlari talab qilinadi. Ularni qo‘llash «yashil» ish o‘rinlarini tanlashga kompleks yondashuvni ta‘minlaydi. «Yashil» ish joylarining holatini baholash uchun ish joyining haqiqiy holati, uning atrof-muhitga (suv resurslari, atmosfera, yer resurslari va boshqalar) ta‘siri, xodimning sog‘lig‘i va faoliyati, uning mehnat sohasidagi mavqeyi (ish haqi, bandlik kafolatlari, mehnat sharoitlari), korxona yoki hududning iqtisodiy tizimi (mehnat samaradorligi) haqida tasavvurga ega bo‘lish uchun ko‘rsatkichlar tizimidan foydalanish tavsiya etiladi. Baholash alohida ish joylariga nisbatan ham, umuman, tashkilotga nisbatan ham amalga oshirilishi mumkin. Ko‘rsatkichlarning uchta blokidan foydalanish maqsadga muvofiqdir: «Atrof-muhitni muhofaza qilish», «Munosib mehnat», «Yuqori texnologiya». «Atrof-muhitni muhofaza qilish» unsurining ko‘rsatkichlari nafaqat korxonalar xo‘jalik faoliyatining suv resurslari va atmosferaga ta‘sirini aks ettiradi, balki tashkilotning tabiiy resurslarga qanchalik ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lishi, uning faoliyati atrof-muhitni saqlashga qaratilganligi (suvni qayta ishlatish, chiqindilarni qayta ishlash va utilizatsiya qilish nuqtai nazaridan) haqida tasavvur beradi. «Munosib mehnat» tarkibiy qismining ko‘rsatkichlari «yashil» ish joyida ishlaydigan shaxsning daromad darajasini, mehnat munosabatlarining barqarorligini («Mehnat shartnomasining amal qilish muddati» ko‘rsatkichi bo‘yicha), sanitariya-gigiyena, psixofiziologik va ijtimoiy omillarning xodimlar salomatligi va faoliyatiga ta‘sirini tavsiflaydi. “Hub-tech” komponentining ko‘rsatkichlari “yashil” ish joyining iqtisodiy nuqtai nazardan qanchalik samarali ekanligi haqida tasavvur beradi. Tashkilotdagi alohida ish joylarining holatini yuqoridagi ko‘rsatkichlar bo‘yicha tahlil qilish bizga «yashil» iqtisodiyot talablariga muvofiqligi nuqtai nazaridan bir qator ish o‘rinlari holatidagi «bo‘g‘inlar» ni aniqlashga va kerak bo‘lganda, vaziyatni ijobiy tomonga o‘zgartirish bo‘yicha chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Цыганкова И.В. Методы и показатели оценки «зеленых» рабочих мест // Экономика и управление. 2023. Т. 29. № 10. С. 1220–1227. <http://doi.org/10.35854/1998-1627-2023-10-1221>
2. <https://www.ilo.org/resource/record-proceedings/ilc/102/resolution-concerning-sustainable-development-decent-work-and-green-jobs>
3. <https://president.uz/uz/lists/view/7815>